GULISTAN STATE UNIVERSITY



WATER AND NUTRIENT REGIME OF THE SOIL, METHODS OF ITS CONTROL

TUPROQNING SUV VA OZIQ REJIMI, UNI BOSHQARISH USULLARI

Gulistan - 2025

Altmishev O. Water and nutrient regime of the soil, methods of its control (Tuproqning suv va oziq rejimi, uni boshqarish usullari)–**Gulistan, 2025.- 20. p.**

Ushbu ma’ruza matni Dehqonchilik fanidan o‘tiladigan “Tuproqning suv va oziq rejimi, uni boshqarish usullari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tuproq tarkibidagi suv va uning shakllari, o’simliklarning suvga bo’lgan talabi va suv, oziqa moddalar, xususan makroelementlar va mikroelementlarning ekinlar hosildorligini oshirishdagi ahamiyati, tuproqdagi suv va oziqa rejimini yaxshilash bo’yicha bajariladigan agrotexnik ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ingliz va o‘zbek tillarida bayon etilgan hamda asosiy atamalar izohi–glossariy keltrilgan. Ma’ruza 2-bosqich Agronomiya (anorchilik) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: **Ingliz adabiyoti kafedrasi mudiri Fazilov A**

Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi dotsent v.b., q.x.f.n., Toshbekov O‘.

Ma’ruza matni Tabiiy fanlar fakulteti Ilmiy Kengashi qaroriga asosan (26. 05. 2025 yil 10-bayonnoma) nashrga tavsiya qilindi.

WATER AND NUTRIENT REGIME OF THE SOIL, METHODS OF ITS CONTROL.
(TUPROQNING SUV VA OZIQ REJIMI, UNI BOSHQARISH USULLARI)

Tuproqdagi suvning asosiy manbalari

Tuproq namligining asosiy manbalari yog‘inlardir. Atmosferadan tushadigan yog‘in-sochinlar yiliga 500 *mmga* yetadi. Lekin qurg‘oqchil mintaqamizda ular 150 - 350 mm.dan oshmaydi. Masalan, Toshkent viloyatida bir yilda eng ko‘pi bilan 353 *mm*, Mirzacho‘lda 250, Andijonda 180, Farg‘ona, Namangan viloyatlarida 150 — 180 *mm*, Termizda 113, Buxoro, Navoiy viloyatlarida 135 — 150 *mm*, Urganchda 82 — 120 *mm* yog‘in-sochin bo‘ladi. Buni 2/3 qismi kech kuzda, qishda va erta bahorda, hali dehqonchilik uchun kerak bo‘lmagan davrda yog‘adi. Shuning uchun bu yerlarda asosan sug‘orib dehqonchilik qilinadi.

Asosiy suv manbalari - daryolardir. Bular Amudaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Norin, Qoradaryo, Qashqadaryo, Chirchiq, Zarafshon va bir qancha katta-kichik daryolar hisoblanadi. Bu daryolar suvining paydo bo‘lishiga qarab akademik V.I.Shul’s to‘rt tilga: muzlik, qor-muzlik, qorli va qor-yomg‘irli suvlarga bo‘lgan. Hammaga ma’lumki baland tog‘lardagi muzliklar, qorlar erib, vodiylarni suv bilan ta’minlaydi.

The main sources of water in the soil

The main sources of soil moisture are fats. Precipitation from the atmosphere-sochins reach 500 mm per year. But in our arid region they are 150 - 350 mm.does not exceed. For example, in Tashkent region there will be at most 353 mm in one year, in Mirzachol — 250, in Andijan — 180, in Fergana, Namangan regions — 150-180 mm, in Termiz-113, in Bukhara, Navoi regions-135-150 mm, in Urganch-82-120 mm of oil-sochin. 2/3 of it falls in late autumn, winter and early spring, during a period when it is not yet needed for farming. Therefore, these lands are mostly irrigated and farmed.

The main sources of water are rivers. These are the amudarya, Syrdarya, Surkhandarya, Norin, Karadarya, Kashkadarya, Chirchiq, Zarafshan and several large-small rivers. This is academic V, depending on the appearance of river water.I.Shul's was divided into four languages: glacial, snow-glacial, snowy and snow-rainy waters. As everyone knows, glaciers in the high mountains, snow melts and water the valleys.



Bizda suvning doimo sug‘orish davrlarida etishmasligi hisobga olib qor, yomg‘ir suvlarini qishda, kech kuzda va erta bahorda ko‘proq yig‘ib olish uchun suv Chorvoq, Andijon (Kampirravot), Tuyamo‘yin, Karkidon, Tolimarjon, Pachkamar, Chordara, Kattaqo‘rg‘on, Qayroqqum va boshqa bir qancha katta-kichik suv omborlari qurilgan. Yozda asosan shu suv omborlaridagi suvdan foydalaniladi. Bundan tashqari Katta Farg‘ona, Katta Andijon, Shimoliy va Janubiy Farg‘ona, Katta Namangan kanallaridan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda qazilgan kanallardan foydalaniladi.

O‘simliklarning suvga bo‘lgan talabini aniqlash tuproqning suv hossalarini yaxshi bilishni, uning suv rejimini to‘g‘ri boshqarishni va suvdan samarali foydalanishni talab qiladi. Tuproq strukturasining buzilishi suv o‘tkazuvchanlikni yomonlashtiradi: agregatlarning buzilishidan hosil bo‘lgan mayda zarrachalar tuproqdagi yirik bo‘shliqlarni to‘ldiradi, shu bilan suvning siljishini qiyinlashtiradi. Bunda tuproq chirindisi katta rol o‘ynaydi, lekin har xil mexanik tarkibli tuproqlar uchun uning ahamiyati bir xil emas. Masalan, fil’trlash xususiyati

yaxshi bo‘lgan qumli tuproqqa organik moddalar solinsa, uning suv o‘tkazuvchanligi kamayadi. Bu chirindining nam sig‘imi yaxshilanganligini, shu bilan u tuproq zarrachalarini birlashtirish xususiyatiga ega ekanligini va ular orasidagi bo‘shliqni to‘ldira olganligini ko‘rsatadi.

Considering that we have a lack of water in the periods of constant irrigation snow, water for more harvesting of rainwater in winter, late autumn and early spring, large-small reservoirs of cattle, Andijan (Camphirravot), Camelback, rhinoceros, Tolimarjan, Pachkamar, Chordara, Cuttack, Kayrokkum and many others have been built. In summer, water from these reservoirs is mainly used. In addition, large Fergana, large Andijan, North and South Fergana, large Namangan channels, dug channels in Surkhandarya, Kashkadarya, Bukhara, Khorezm and Karakalpakstan are used.

Determining the water demand of plants requires a good knowledge of the water hoses of the soil, proper control of its water regime and effective use of water. Violation of the soil structure worsens water permeability: small particles formed from the breakdown of aggregates fill large gaps in the soil, thereby making it difficult for water to shift. Soil humus plays a big role in this, but for soils with different mechanical compositions, its importance is not the same. For example, when organic matter is applied to a sandy soil with good filtration properties, its water permeability is reduced. This indicates that the wet capacity of the humus has improved, thus it has the property of combining soil particles and is able to fill the space between them.

Tuproq namligining yil, mavsum va kun davomida o‘zgarishiga tuproqning suv rejimi deyiladi. Tuproqning suv rejimi muzlagan, yuviladigan, davriy yuviladigan, yuvilmaydigan, terlaydigan va irrigatsion turlarga bo‘linadi.

Bizning mamlakatimiz qurg‘oqchil mintaqada joylashganligi uchun tuproqlarimizning suv rejimi irrigatsion (sun’iy sug‘oriladigai) turga kiradi.

Manbadan tuproqqa kelgan suv miqdori bilan sarflangai suv miqdorining ayirmasi tuproqning suv muvozanati deb ataladi. Tuproqqa keladigan suvlar — yog‘in, sun’iy sug‘orish suvining bir qismi atmosferaga bug‘lanadi, dalaning nishobiga qarab oqib ketadi, sizot suvlar qatlamiga singib, ularga qo‘shiladi va nihoyat o‘simliklar transpiratsiyasiga sarflanadi.

Tuproqning suv hossalari. Tuproq quyidagi suv hossalariga ega bo‘lib, bu hossalar tuproqning suv rejimini belgilaydi:

Tuproqning nam sig‘imi — uning qatlamlarida ma’lum miqdrr suvni to‘tib turish qobiliyatidir.

Tuproqning to‘la nam sig‘imi — uning barcha bo‘shliqlari eng yuqori darajada namlik bilan to‘yinishidir. Tuproqda bu holat kuchli yog‘inlar, sug‘orishlar tufayli qisqa muddat davomida yuzaga keladi.

Dala nam sig‘imi deb — tashqi omillar ta’sirisiz tuproqda eng ko‘p miqdorda va muddatda ushlanib turgan namlikka aytiladi.

S.N.Rijov ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimiz tuproqlarining dala nam sig‘imi vazniga nisbatan 10 - 27 foiz bo‘lishi mumkin. Tuproqning bu hossasi dehqonchilikda muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘simliklarni sug‘orish rejimi shu hossaga qarab belgilanadi.

Ilmiy manbaalarga ko‘ra tuproqning dala nam sig‘imi uning unumdorligi, sizot suvlarining joylashuvi, mexanik tarkibi, tarkibidagi chirindi miqdoriga qarab o‘zgaradi.

The change in soil moisture throughout the Year, season and day is called the water regime of the soil. The water regime of the soil is divided into frozen, washed, periodically washed, non-washed, sweating and irrigated types.

Since our country is located in an arid region, the water regime of our soils is of the irrigatsioi (artificial irrigategai) type.

The subtraction of the amount of Water spent by the amount of water coming from the source to the soil is called the water balance of the soil. The water that comes to the soil-rain, part of the artificial irrigation water evaporates into the atmosphere, flows towards the slope of the field, sizot is absorbed into the layer of water and added to them, and finally spent on plant transpiration.

Water hoses of the soil. The soil has the following water hoses, which determine the water regime of the soil:

The wet capacity of the soil is the ability to saturate certain microusal water in its layers.

The full wet capacity of the soil is the saturation of all its cavities with the highest level of moisture.

In the soil, this condition occurs for a short period of time due to strong precipitation, watering. As a field wet capacity-it is said to be the most abundant in the soil without the influence of external factors and the moisture trapped in the process.

S.N.Rijov, the field wet capacity of the soils of our country can be 10 - 27 percent in weight. This Hossa of soil is important in agriculture. Because the regime of watering plants is determined according to this Hossa. According to scientific sources, the field wet capacity of the soil varies depending on its fertility, the location of sizot waters, mechanical composition, the amount of humus it contains.



Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi — uning yuqori qatlamlardan quyi qatlamlarga ma’lum tezlikda suvni o‘tkazish xususiyatidir. Qum, qumloq tuproqlar suvni qatlamlar bo‘ylab tez, zich mexanik tarkibli tuproqlar esa sekin o‘tkazadi.

Tuproqniig suv ko‘tarish qobiliyati – deganda tuproqning pastki qatlamlaridan yuqori qatlamlarga suvni ko‘tarishi tushuniladi. G‘ovak tuproqlarda suv yuqoriga sekin, zich tuproqlarda tez ko‘tariladi.

Tuproqning suv bug‘latishi – uning yuzi va qatlamlaridan namlikning atmosferaga chiqib ketishidir. Tuproqning bu hossasi iqlim, tuproqning mexanik tarkibi, donadorligi, dala relefi, o‘simlik qoplami va havoning nisbiy namligiga bog‘liq.

Water permeability of the soil is its property of transferring water from the upper layers to the lower ones at a certain speed. Sandy, loamy soils transfer water along layers quickly, and soils with dense mechanical composition are slow.

Salivary water lifting capacity-is understood to raise water from the lower layers of the soil to the upper layers. In porous soils, water rises up slowly, in dense soils, quickly.

Water evaporation of the soil is the release of moisture from its surface and layers into the atmosphere. This feature of the soil depends on the climate, mechanical composition of the soil, granularity, field relief, plant cover and relative humidity of the air.



Tuproqdagi suv va uning o‘simlik hayotidagi ahamiyati

Ma’lumki, o‘simlikning normal yashashi uchun oziq moddalari bilan birga tuproqda yetarli miqdorda suv ham bo‘lishi kerak. Tuproq namni asosan havodan yog‘adigan yog‘inlar, shuningdek yerosti suvlari (agar bular yer betiga yaqin joylashgan bo‘lsa) dan oladi. Sug‘orib dehqonchilik. qilinadigan yerlarda esa, bulardan tashqari yana sug‘orish orqali ham tuproq qo‘shimcha suv oladi. Tuproqdagi suv turli holatda bo‘lib, ularning hammasidan ham o‘simlik foydalanavermaydi. Tuproq bo‘lakchalari orasidagi bo‘shliqlarda yoki yerning betidagi havoda suv gaz holatida bo‘lishi mumkin. Bu xildagi namga bug‘ (par) shaklidagi suv deb ataladi.

Havoning sovishidan bug‘ suyuq tomchiga aylanadi, buni shudring (shabnam) deb yuritiladi. Shudringdan o‘simlik foydalana oladi. Lekin undan hosil bo‘lgan suv juda oz bo‘ladi, yoki havoning qizishi blan tezda bug‘lanib ketadi. Tashqi ko‘rinishida quruq ko‘ringan har qanday tuproq ma’lum darajada o‘ziga gaz holatidagi suvni singdirib olgan bo‘ladi. Bu xildagi suvga gigroskopik nam deyiladi. Bug‘ shaklidagi va gigroskopik namdan o‘simlik foydalana olmaydi. Shu sababli bunday namlikni o‘simliklar foydalana olmaydigan nam zahirasi deb yuritiladi.

Tuproqlarning o‘simlik foydalana olmaydigan nam zapasi, ularning mexanik tarkibiga qarab har xil bo‘ladi. Masalan, akademik V. R. Vilyamsning ko‘rsatishicha, har 100 kilogramm qumloq tuproqda 2,2 *kg*, xuddi shuncha og‘irlikda olingan qumoq tuproqda—4,7 *kg*, soz tuproqda—8 *kg* va nihoyat o‘sha miqdordagi torfli tuproqda 20 dan 50 *kg* gacha o‘simlik uchun foydasiz nam bor ekanligini ko‘ramiz.

It is known that in order for the plant to live normally, there must be enough water in the soil along with nutrients. The soil receives moisture mainly from precipitation from the air, as well as groundwater (if these are located close to the Earth's bet). Irrigated farming. in the lands to be made, in addition to these, the soil receives additional water through irrigation. The water in the soil is in different states, not all of which are used by the plant. Water can be in the gaseous state in the gaps between the soil fragments or in the air in the Earth's bet. This is called water in the form of steam (par) to the moisture in the hill.

From the cooling of the air, steam becomes a liquid drop, which is referred to as dew (dew). Dew can be used by the plant. But the water formed from it will be very little, or the heating of the air will quickly evaporate the Blanc. Any soil that looks dry in appearance will to some extent have absorbed water in its gaseous state. Water in this variety is called hygroscopic wet. Steam-shaped and hygroscopic moisture cannot be used by the plant. For this reason, such

moisture is referred to as a wet reserve that plants cannot use. The moist zap of soils that the plant cannot use will be different depending on their mechanical composition. For example, academic V. R. Williams shows that every 100 kilograms of loamy soil contains 2.2 kg, in loamy soil taken at the same weight—4.7 kg, in loamy soil—8 kg, and finally in that amount of peat soil, 20 to 50 kg of useless moisture for the plant.



Agar tuproqdagi suv zapasi o‘simlik foydalana olmaydigan namlik darajasiga tushib qolsa, unda o‘simlik so‘lishi, hatto qurib qolishi ham mumkin. Odatda bu namlikni o‘simlikning so‘lish koefitsienti deb yuritiladi.

Har bir tuproq xili uchun xos bo‘lgan so‘lish koefitsientini bilish o‘sha tuproqdagi o‘simlik foydalanaoladigan suv miqdorini aniqlashda yordam beradi.

Masalan, kolxozning biror dalasini tashkil qilgan qumloq tuproqning namligi 14% bo‘lsin. Bundan o‘simlik foydalana olmaydigan nam zaxirasini (bu nam zapasi, yuqorida ko‘rganimizdek 100 kilogramm tuproqda 2,2 *km* ga teng edi) olib tashlasak, shu tuproqdagi o‘simlik uchun foydali suv miqdori 11,8 protsent ekanligini bilamiz. Yoki ikkinchi bir boshqa daladagi, masalan, qumoq tuproqli yerning namligini ham 14 protsent deb faraz qilaylik. Agar undan (14% dan) o‘simlik foydalana olmaydigan suv zapasini (bu tuproqlar uchun 4,7% edi) chiqarib tashlasak, u tuproqdagi foydali nam 9,3 protsentga baravar bo‘ladi.

Tuproq kapilyarlarida harakat qiladigan suv xiliga kapilyar nam deyiladi. Tuproqdagi bu namni o‘simliklar ildizi orqali osonlik bilan so‘rib oladi. Bu o‘simlik uchun foydali namning asosiy manbaidir.

Qor yoki yomg‘ir yoqqanida, yoki sug‘orishda beriladigan suvni tuproq o‘ziga yirik bo‘shliqlar va kapilyarlar orqali yaxshi singdirib oladi. Kapilyarlar to‘lganidan keyin ortib qolgan suv tuproqlardagi boshqa bo‘shliqlarni to‘ldiradi va pastga sizib o‘tadi. Bu erigan holdagi suvdan ham o‘simlik bemalol foydalanadi. Agar tuproq o‘zida kapilyarlarga ega bo‘lmasa edi, u o‘simliklarga kerakli suvni saqlab tura olmagan bo‘lardi.

Aksincha, tuproqda kapilyarlardan tashqari yana boshqa bo‘shliqlar bo‘lmaganda ham, tuproqning yuqori qavatidan pastki qavatiga suvning o‘tishi deyarli mumkin bo‘lmas edi. Chunki kapilyarlardagi suv ko‘pincha pastdan yuqoriga qarab harakat qiladi.

Binobarin, o‘simliklarning suv blan normal ta’minlanishi uchun tuproqning kapilyarlari blan kapilyarlar bo‘lmagan bo‘shliqlar ham bo‘lishi zarur. Bunday holatni faqat strukturali tuproqlardagina uchratish mumkin.

If the water zap in the soil falls to a level of moisture that the plant cannot use, then the plant can wilt, even wither. Usually this moisture is referred to as the wilting coeficient of the plant.

Knowing the solubility coeficent, which is typical for each type of soil, can help determine the amount of water that a plant in that soil can use.

For example, let the moisture content of the loamy soil, which made up some field of the collective farm, be 14%. We know that the amount of water useful for a plant in the same soil is 11.8 procents, if we remove from this a moist reserve that the plant cannot use (this moist Zapa, as we saw above, was equal to 2.2 km in 100 kilograms of soil). Or let's assume that the moisture content of the Earth in the second one other field, for example, loamy soil, is also 14 protsent. If we exclude from it (from 14%) water Zapa, which the plant cannot use (this was 4.7% for soils), it will be about 9.3 times the useful moisture in the soil.

Water chilli acting on soil capillaries are called capillary wet. This moisture in the soil is easily absorbed through the roots of plants. This is the main source of moisture useful for the plant.

When snow or rain is on, or when watering, the water supplied is well absorbed by the soil itself through large cavities and capillaries. The water that grows after the capillaries are full fills other gaps in the soils and leaks down. This melt water is also freely used by the plant. If the soil did not have capillaries on its own, it would not have been able to maintain the water needed by the plants.

On the contrary, it would be almost impossible for water to flow from the top floor to the bottom floor, even if there were no other gaps in the soil other than capillaries. Because the water in the capillaries often moves from bottom to top.

Consequently, for the normal supply of water Blanc in plants, it is necessary that the capillaries of the soil also be voids without Blanc capillaries. This condition can only be found on structured soils.

Tuproqning suvga bog‘liq hossalari

Dehqonchilikda tuproqning suvga bog‘liq hossalaridan quyidagilar katta ahamiyatga ega:

1) tuproqning suv o‘tkazuvchanligi, 2) suv singdiruvchanligi, 3) suvni pastdan yuqoriga ko‘tariluvchanligi va 4) suvni bug‘latish qobiliyati.

Tuproqning suv o‘tkazuchanligi deb, uning suvni yuqoridan pastga o‘tkazishiga aytiladi.

Tuproqning bu hossasi uning mexanik tarkibiga, struktura holatiga, qatlamning zichlik darajasiga va tuproqdagi organik moddaning oz ko‘pligiga bog‘liq bo‘ladi.

Og‘ir tuproqlarga qaraganda yengil tuproqlar suvni tez o‘tkazadi. Masalan, o‘tkazgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bir gektar yerda 700—800 kubometr suvni yengil tuproqda singdirish uchun 8—10 soat vaqt ketsa, og‘ir tuproqlarda bu miqdordagi suvning singishiga 1 — 2 kun kerak bo‘ladi.

Mexanik tarkibi bir xil bo‘lgan yerlarda esa, strukturali tuproq suvni tez o‘tkazib, aksincha, strukturasi yo‘qolgan tuproqlar sekin o‘tkazadi. Masalan, professor S. N. Rijov ma’lumoti bo‘yicha mexanik tarkibi bir xil bo‘lib, strukturali holati turlicha bo‘lgan almashlab ekish dalalaridagi tuproqlarning suv o‘tkazuchanligi quyidagicha bo‘lganini ko‘ramiz.

Uch yillik bedapoya buzilib birinchi yil g‘o‘za ekilgan dalada bir gektar yerga 405 kubometr suv singgan (bir soatda).

Ikki yillik bedapoya buzilib birinchi yil g‘o‘za ekilgan dalada 245 kubometr suv singgan.

Eskidan g‘o‘za ekilib kelgan dalada 135 kubometr suv singgan.



Water-dependent soil

Feature of the water-dependent feature of the soil in agriculture, the following are of great importance: 1) water permeability of the soil, 2) water absorption, 3) Water bottom-to-top permeability, and 4) the ability to evaporate water. It is said that the soil is permeable to water from top to bottom.

This feature of the soil will depend on its mechanical composition, the state of the structure, the degree of density of the layer and a small amount of organic matter in the soil. Lighter soils than heavy ones tend to transfer water quickly. For example, experiments have shown that it takes 8-10 hours to absorb 700-800 cubic meters of water in a hectare of land in light soil, while in heavy soils it takes 1-2 days to absorb this amount of water. In areas with uniform mechanical composition, however, the structured soil passes water quickly, and instead soils with Lost structure pass slowly.

For example, professor S.N.Rijov data, the mechanical composition is the same, and we see that the water permeability of soils in alternating planting fields with different structural conditions is as follows. In the first year of the three-year decay of alfalfa stalk, 405 cubic meters of water were absorbed into one hectare of land in a field planted with acorns (in an hour). In the first year of the two-year decay of bedapoya, 245 cubic meters of water were absorbed in the field where acorns were planted. 135 cubic meters of water were absorbed in the field where acorns were planted from the old one.

Strukturali tuproqlar suvni eng ko‘p singdirishi bilan birga uni uzoqroq ushlab turadi hamda ancha tejab sarf qiladi. Chunki bu tuproqlarda suvni struktura bo‘lakchalar o‘ziga shimib olib, tezda bug‘lanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Demak, tuproqdagi suv o‘simlikka kerak

bo‘lgandagina sarf bo‘ladi. Chirindisi ko‘p tuproqlarda ham suvning ko‘p singib uzoq saqlanib turishini harbir kolxozchi yaxshi biladi.

Dehqonchilikda tuproqning suv singdiruvchanligini aniqlash, ayniqsa, sug‘orish normalarini belgilash uchun juda ham zarurdir.

Ekinlarni sug‘orish normalari tuproqning singdiruchanligiga qarab belgilanadi. Juda ko‘p o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tuproqning namlik darajasi (agar u yer sho‘rlanmagan bo‘lsa) uning suv sig‘diruvchanliligiga nisbatan 65—70% bo‘lganda ekinlarni (g‘o‘zani) sug‘orish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Agar tuproqdagi namlik yuqorida ko‘rsatilgan namlikdan kamroqqa tushirib sug‘orilsa, o‘simlik (g‘o‘za) so‘lishi mumkim.

Tuproqning suv sig‘diruvchanligi uning og‘irligiga nisbatan protsent hisobida ko‘rsatiladi. Masalan, O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlarida bir metr qalinlikdagi tuproq qatlamining o‘rtacha suv sig‘diruvchanligi quyidagichadir:

soz (og‘ir) tuproqlarda 25—26%
qumoq 19—20%
qumloq 13—15%
qumli 10—11%

Structural soils, while absorbing water the most, keep it longer and save a lot. Because in these soils, the water structure absorbs the lumps and prevents them from evaporating quickly. So water in the soil will only be spent if the plant needs it. Even on many soils, humus is well known to the military collective farmer that a lot of water is absorbed and stored for a long time. In agriculture, determining the water absorption of the soil is especially necessary to determine the norms of irrigation. The norms for watering crops are determined depending on the absorbency of the soil. Very much conducted experiments show that it is advisable to water crops (Acorns) when the moisture level of the soil (if the soil is not saline) is 65-70% relative to its water capacity. If the moisture in the soil is lowered and watered less than the moisture indicated above, it is possible for the plant (Acorn) to wilt. The water capacity of the soil is indicated in the procent calculation with respect to its weight. For example, in the irrigated lands of Uzbekistan, the average water capacity of a one-meter-thick layer of soil is as follows: 25-26 on shallow (heavy) soils% sand 19-20% gravel 13-15% dirty 10-11%.



Demak, turli yerlarda tuproqning suvni singdiruvchanlik xususiyati tuproqning mexanik tarkibiga qarab suv singdiruvchanlik miqdori har xil bo‘lar ekan.

Tuproqning suvni pastdan yuqoriga ko‘taruvchanligi, ya’ni tuproqning quyi qatlamlaridagi suvni yuqori qavatlarga ko‘tarib berish qobiliyati o‘simliklar hayotida katta ahamiyatga egadir.

Shu boisdan tuproqdagi suv pastdan yuqoriga qarab faqat kapilyarlar orqali harakat qiladi. Tuproqning bu hossasi asosan uning mexanik tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

This means that the water absorption property of the soil in different lands would be different in the amount of water absorption depending on the mechanical composition of the soil.

The ability of the soil to raise water from bottom to top, that is, the water in the lower layers of the soil, up to the upper floors, is of great importance in the life of plants.

Therefore, water in the soil moves from bottom to Top only through capillaries. This feature of the soil will largely depend on its mechanical composition. This can be seen in the table below.

Table 1.

In two different soils, the bottom-up of the water (sm. on account)

The name of the soil	*from 1 hour*	*from 6 hour*	*then from 1 day*	*then 6 days*	*after 26 days*
Sandy soil	20	31	35	41	41
Smooth soil	5	23	33	51	78

Soz tuproqda (tajribaning dastlabki davrida) suv sekinlik bilan ko‘tarilgan. Ammo tajriba oxiriga borib, unda suvning ko‘tarilish balandligi eng yuqori bo‘lgan.

Qumli tuproqda esa, birinchi soatlarda suv tezlik bilan: ko‘tarilgan bo‘lsada, ammo 6 sutkadan so‘ng uning ko‘tarilishi butunlay to‘xtagan. SHunday qilib, og‘ir tuproqlar suvni juda ham baland ko‘tarib berish qobiliyatiga ega bo‘lar ekan. Aksincha, qumloq yoki qumli tuproqlar esa suvni uncha baland ko‘taraolmas ekan.

Shu sababli qum yoki shag‘al qatlamlar ustida joylashgan tuproq qavati, garchi bu tuproqlarda yerosti suvlari yer betiga yaqin turganida ham tez qurib qolishini ko‘rish mumkin.

Tuproqdagi kapillyarlar bo‘yicha pastdan yuqoriga ko‘tarilayotgan suv, agar u o‘simlik ildizlari va ildizchalarga o‘tmasa, yerning betigacha chiqishi hamda befoyda havoga uchib ketishi mumkin. Bu hodisa ayniqsa strukturasiz, zichlangan, og‘ir tuproqlarda bo‘ladi. Shuning uchun tuproqlardagi namini saqlab qolish maqsadida sug‘organdan so‘ng tuproq betini yumshatish eng muhim agrotexnika tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Tuproqning suvni pastdan yuqoriga ko‘tarish hossasi (ayniqsa sug‘orib dehqonchilik qilinadigan rayonlarda) tuproqlarning sho‘rlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

In shallow soil (early in the experiment), the water rose slowly. But by the end of the experiment, the height of the rise of water in it was the highest.

On the sandy soil, however, in the first hours, the water was at a speed of: although it was raised, but after 6 days its rise completely stopped. Thus, it turns out that heavy soils have the ability to raise water much higher. In contrast, loamy or sandy soils do not raise the water much higher.

For this reason, the soil floor above the sand or gravel layers, although in these soils it can be seen that the groundwater dries up quickly even when it stands close to the Earth's bet.

Bottom-to-top water from the capillaries in the soil can escape as far as the Earth's Bethesda and fly into the useless air if it does not move to the plant roots and roots. This phenomenon occurs especially on unstructured, compacted, heavy soils. Therefore, loosening soil concrete after watering in order to maintain moisture in the soils is one of the most important agrotechnical measures.

Bottom-up feature (especially in irrigated-farmed raions) has a major effect on salinity of soils.



Tuproqdagi tuzlarning manbai, asosan, yer ostidagi shoʻrlangan sizot suvlardir. Kapillyarlar orqali koʻtarilgan yerosti shoʻr suvlarni tuproqning betiga chiqqanidan soʻng bugʻlanib, suvdagi tuzlar tuproqning ustida yoki betiga yaqin qavatda toʻplanadi. Agar bu hodisaga qarshi chora koʻrilmasa, tuproq tezda shoʻrlanib qolishi mumkin, amaliyotda bu hodisa ayniqsa ogʻir soz tuproqlarda kuchli boʻlishi kuzatiladi.

Tuproqning suvni bugʻlatish qobiliyati deb, tuproq oʻzida boʻlgan namni tez yoki sekinlik bilan yoʻqotishiga aytiladi.

Tuproqdagi namning bugʻlanishiga ob-havo sharoiti (havo harorati, havoning namligi, shamolning kuchli yoki kuchsiz esishi), joyning tuzilishi (yerning kungay yoki kunga teskari joylanishi), shuningdek tuproqning birqancha xususiyatlari (struktura holati, mexanik tarkibi, rangi, namligi va boshqalar) ta'sir koʻrsatadi.

Strukturasiz, chirindisi kam, koʻp zichlangan ogʻir tuproqlarda namni juda tezlik bilan yoʻqolishini koʻramiz. Agar bu tuproqlarda sugʻorgandan keyin tuproqning yetilishi bilan kul'tivatsiya yoki chopiq oʻtkazilmasa, undagi nam 3—4 kundayoq havoga bugʻlanib ketadi. Shuning uchun sugʻorgandan keyin tuproq yetilishi bilan kul'tivatsiya oʻtkazish eng zarur agrotexnik tadbir hisoblanadi.

Tuproqdagi suvning koʻproq bugʻlanishiga yer betining tekis boʻlmasligi ham kuchli ta'sir koʻrsatadi. Oʻsimlik bilan band boʻlgan yerga qaraganda usti yalangʻoch, oʻsimliksiz ochiq yerlar namni tez yoʻqotadi.

Shu sababli oʻsimliklar uchun zarur boʻlgan nam zaxirasini tuproqda mumkin qadar koʻproq va uzoqroq saqlab qolishda yuqoridagilarni e'tiborga olib ish koʻrish lozim boʻladi.

The source of salts in the soil is mainly saline sizot waters underground. The ground raised by capillaries evaporates the salt water after it comes out of the soil's bet, and the salts in the water accumulate above the soil or on the floor close to the bet. If no action is taken against this phenomenon, the soil can quickly become saline, in practice it is observed that this phenomenon is especially strong on heavy soils.

It is said that the soil has the ability to evaporate water so that the soil loses the moisture it contains quickly or slowly.

Evaporation of moisture in the soil is influenced by weather conditions (air temperature, air humidity, strong or weak blowing of the wind), the structure of the place (the reverse location of the Earth on a day or day), as well as the back properties of the soil (structure condition, mechanical composition, color, humidity, etc.).

Without structure, we see that moisture is lost very quickly on heavy soils with little humus, much compacted. If with the maturation of the soil after watering on these soils, no cultivation or chop is carried out, the moisture in it evaporates into the air at the age of 3-4

days. Therefore, it is the most necessary agrotechnical event to carry out cultivation with the maturation of the soil after watering.

The greater evaporation of water in the soil is also strongly influenced by the uneven nature of the Earth's bet. Bare above than vegetation-occupied land, open land without vegetation loses moisture rapidly.

Therefore, it will be necessary to take into account the above in maintaining the necessary moist reserve for plants as much as possible in the soil and longer.



O‘simliklarni sug‘orish rejimi

O‘simliklarni sug‘orish rejimi deb ularni zarur vaqt mobaynida va kerakli miqdorda uni tuproq namligi bilan ta’minlashga aytiladi. S.N.Rijov ta’kidlashicha, ko‘pchilik madaniy o‘simliklarni sug‘orish rejimi dala nam sig‘imiga nisbatan tuproq namligi 60-70 foiz bo‘lishi mumkin. Xususan, g‘o‘zaning sug‘orish rejimi yoki bu o‘simlik uchun tuproq namligining eng quyi chegarasi dala nam sig‘imiga nisbatan 70 foizdir.

Tuproq namligi yuqoridagilardan past darajada bo‘lsa, suv o‘simlikka yaxshi o‘tmaydi, hatto butunlay o‘tmay, singdirmay qo‘yadi. Bunday holat o‘simlikni so‘lish namligi deyiladi. Demak, o‘simliklarni tuproqdagi mavjud namlikni aslo so‘lish namligi darajasiga tushirmay sug‘orish kerak.

Ko‘pchilik hollarda agar tuproqda nam yetarli bo‘lmasa, ekinzorni begona o‘tlar bosib ketadi, chunki ularning ildiz tizimi tuproqning chuqur qatlamlarida rivojlangan bo‘ladi. Bu esa ekinlar o‘sishi va rivojiga salbiy ta’sir etadi. Tuproqda namlikning kamayishi mikroorganizmlar faoliyatiga ham salbiy ta’sir etadi, quruq tuproqda biologik jarayonlar so‘nib, organik moddalarning parchalanishi to‘xtab qoladi. Tuproq nami uning to‘la namlik sig‘imiga nisbatan 60% bo‘lganda, mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Tuproqning suv rejimini o‘rganish va boshqarish madaniy ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishda alohida ahamiyatga ega.

Plant irrigation regime

The regime of watering plants is said to provide them with soil moisture for the required time and the required amount of time. S.N.Rijov notes that the regime of irrigation of most cultivated plants can be 60-70 percent of the soil moisture compared to the field wet capacity. In particular, the irrigation regime of the acorn, or the lowest limit of soil moisture for this plant, is 70 percent compared to the wet capacity of the field.

When the soil moisture is at a lower level than the above, the water does not pass well into the plant, even completely failing, leaving it impregnated. This condition is called wilting moisture of the plant. This means that the plants should be watered without lowering the existing moisture in the soil to the level of wilting moisture at all. In most cases, if there is not enough moisture in the soil, the crop will be overrun by weeds, since their root system will have developed in the deeper layers of the soil. This negatively affects the growth and development of crops.

The decrease in moisture in the soil also negatively affects the activity of microorganisms, in dry soil biological processes fade, and the decomposition of organic matter stops. When soil moisture is 60% compared to its full moisture capacity, favorable conditions are created for the development of microorganisms. The study and management of the water regime of the soil is of particular importance in obtaining a high and high-quality harvest from cultural crops.

O‘simliklarning suvga talabi.

Dehqonchilikda ekiladigan barcha madaniy ekinlar o‘sish, rivojlanish uchun ma’lum suv sarflaydi. Ekinlarnnig suvga talabi deganda o‘simliklarniig ildiz tizimi orqali tuproqdagi suvni «shimib olib, barglari orqali atmosferaga bug‘latishi yoki transpiratsiya hodisasi tushuniladi.

O‘simliklar quruq modda hosil qilish uchun sarflagan suv miqdori – transpiratsiya koeffitsiyenti deyiladi.

Yetishtirilayotgan o‘simliklar navi, biologik xususiyatlari turli-tumandir, shuning uchun o‘simliklarni transpiratsiya koeffitsieiti juda o‘zgaruvchan. U ekin turiga, iqlim sharoitga, yog‘in miqdori, havo harorati, tuproq eritmasiga konsentratsiyasi, shamol va ekin naviga qarab o‘zgaradi. K. A. Timiryazevning ta’kidlashicha, kuchli shamolda o‘simliklarning transpiratsiya koeffitsiyenti 20 martagacha ortishi mumkin.

N.M.Tulikov ma’lumotlariga ko‘ra, arpaning transpiratsiya koeffitsiyenti havoning nisbiy namligi kam bo‘lganda 618 bo‘lsa, nisbiy namlik ortganda 288 ni tashkil etadi**.**

Water demand of plants.

All cultivated crops planted in agriculture use certain water for growth, development. Cultivarnig water demand refers to the phenomenon of plants being able to "absorb" water in the soil through the niig root system and evaporate it into the atmosphere through its leaves or transpiration. The amount of water that plants spend to produce dry matter is called the transpiration coefficient. The variety of cultivated plants, biological characteristics are diverse, so the transpiration quotient of plants is very variable. It varies depending on Crop Type, climatic conditions, oil content, air temperature, concentration in soil solution, wind and crop variety. K. A. Timiryazev noted that in strong winds, the transpiration coefficient of plants can increase up to 20 times.

N.M.Tulikov, the transpiration coefficient of barley is 618 when the relative humidity of the air is low, and 288 when the relative humidity is increased.

Table 2

Variation of transpiration coefficient according to plant species

Crops	Transpiration coefficient
Cotton	280-640
Corn	233-386
White sorghum	237-437
Kanop	450-700
Alfalfa	446-1068
Rice	250-811
Sugar beet	267-397
Potatoes	167-636
wheat	231-557
barley	253-774

Oats	332-766

O‘simliklarning suvga talabi tuproq turi, iqlim, ekin navlariga biologik xususiyatlariga, o‘simlikning rivojlanish bosqichlariga, amal davri davomiyligiga, tuproq unumdorligi hamda qo‘llaniladigan parvarish agrotexnikasiga ham bog‘liq. Shuningdek, transpiratsiya koeffitsiyentiga, o‘simlik ildizining rivojlanish darajasi ham o‘ziga hos ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, kuchli ildiz tizimiga ega bo‘lgan beda o‘simligining transpiratsiya koeffitsiyenti 446-1100 bo‘lsa, popuk ildizli bug‘doyniki 231-557 ekanligi buning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimiz dehqonchiligidagi asosiy e’tibor, muhim ekinlardan biri - g‘o‘zaning suvga bo‘lgan talabiga qaratilgan.

Masalan, g‘o‘zaning suvga bo‘lgan talabi, uning tabiatiga ko‘ra. amal davrida hamda hosilning paydo bo‘lish jarayonida aniq chegaralangan emas. Bu jarayonlar bir-biriga o‘xshash va o‘zaro bog‘liq holda o‘tadi. G‘o‘zaning butun o‘suv davri suvga bo‘lgan talabiga qarab 3 davrga bo‘linadi:

birinchi davr - ekishdan, to gullashigacha bo‘lgan davr;
ikkinchi davr — gullash - meva tugish davri;
uchinchi davr - hosilning pishib etilishi davri.



Figure 1. Evapotranspiration

The water demand of plants also depends on the type of soil, climate, biological characteristics of crop varieties, stages of plant development, duration of action period, soil fertility and applied care agrotechnics. Also, the transpiration coefficient, the level of plant root development, is influenced by hos.

In particular, the transpiration coefficient of a Bede plant with a strong root system is 446-1100, while the fact that a poplar root wheat is 231-557 is clear evidence.

The main focus in the Agriculture of our country is on the demand for water from one of the most important crops - Acorns.

For example, the Acorn's demand for water, according to its nature. it is not clearly delimited during the period of action, as well as in the process of the emergence of the crop. These processes are similar and interrelated. The entire growth period of the Acorn is divided into 3 periods, depending on the demand for water:
the first period is the period from sowing to flowering;
second period-flowering - fruiting period;
the third period is the period of ripening of the crop.

O‘simliklarning suvga bo‘lgan talabi birinchi davrdan keyingi davrlarga o‘tgan sayin ortib boradi. Jumladan, g‘o‘za o‘suv davrining boshlanishida suvni kam sarflaydi. Chunki bu vaqtda uning bargi hali unchalik ko‘p va katta bo‘lmaydi, havo harorati esa pastroq bo‘ladi va har gektar yerda bir sutkada 11 - 12 m^3 suv sarflaydi. O‘simlik o‘sgan, tanasi kattalashgan, barglari soni ortgan sayin va havo haroratining ko‘tarilishi tufayli o‘simlikda transpiratsiya

ortadi. G‘o‘zaning shonalash davriga kelib har gektar yerga 20 - 25 m3 suv sarflanadi. G‘o‘za gullash va meva tugish davrida suvni ko‘proq talab qiladi. Bu davrda gektariga o‘rtacha 90 - 115 m3, hatto undan ham ko‘proq suv sarflaydi. Hosil yetilishi davrida esa suv sarfi 30 - 35 m3 gacha kamayadi. Suv sarfi har xil sharoitda turlicha bo‘ladi va u tuproq unumdorligi hamda olingan hosilning miqdoriga qarab aniqlanadi.

The demand of plants for water increases with the transition from the first period to the next. In particular, the Acorn consumes little water at the beginning of the growing season. Because at this time its Leaf will not be so much and large yet, and the air temperature will be lower, and every hectare will spend 11 - 12 m3 of water per day. The plant is overgrown, the body is enlarged, the transpiration increases in the plant as the number of leaves increases and due to the rise in air temperature. 20 - 25 m3 of water is spent on every acre of land by the goshawk's shonation period. Acorns require more water during the flowering and fruiting period. During this period, it consumes an average of 90 - 115 m3 per hectare, or even more. And during the period of harvest, water consumption decreases to 30 - 35 m3. Water consumption varies under different conditions and is determined by the fertility of the soil as well as the amount of harvest obtained.

Barcha o‘simliklar ma’lum davrda suvni juda ko‘p talab qiladi. Shuning uchun o‘suv davrida tuproqda nam yetishmay qolsa, hosil maksimal darajadan kamayib ketadi, bu davr suv talab qilish davrining kritik davri, deb ataladi.

O‘simliklarning eng ko‘p suv talab qiladigan davri quyidagicha:
G‘o‘zada — gullash, meva tugish davrida;
Makkajo‘xorida- gullash va doni sut pishig‘i davrida;
Kungaboqarda - savatchasi hosil bo‘ladigan va gullash davrida;
Oqjo‘xori va tariqda - ruvagi hosil bo‘ladigan va doni yetiladigan davrda;
Dukkaklilarda va grechixada - gullash davrida;
Poliz ekinlarida - gullash va yetilish davrida;
Kartoshkada - gullash va tuganaklash davriga to‘g‘ri keladi.



All plants require a lot of water during a certain period. Therefore, if the soil lacks moisture during the growing season, the yield will decrease from the maximum, this period is called the critical period of the water demand period.

The most water-intensive period of vegetation is as follows:
Cotton-during flowering, fruiting;
In corn-during flowering and cereal milk ripeness;
In sunflower-during the period when the basket is formed and flowering;
In white sorghum and millet - bouquet of flowers are formed and the grain matures;
In legumes and buckwheat - during flowering;

Melon crops-during flowering and maturation;
In potatoes-coincides with the flowering and ripening period.

Table 13

Average daily water consumption in a cotton field, depending on productivity, ga/m (V.E.Yeremenko disambiguation)

The period of development of the Cotton	*Defined calendar period*	*Productivity, st/ga*	
		30-35	*45 or more*
Budding	*10-16, VI*	*18-20*	*20-25*
At the beginning of flowering	*1-5, VII*	*35-40*	*40-45*
In mass flowering	*15-20, VII*	*50-55*	*60-65*
At the beginning of fruiting	*1-5, VIII*	*75-80*	*90-95*
At the end of mass fruiting	*5-10, IX*	*85-90*	*100-105*
At the beginning of maturation	*1-5, IX*	*45-50*	*65-70*
At full maturity	*15-20, IX*	*25-30*	*30-35*

Dala sharoitida, turli tuproq-iqlim zonalarida ekinlar normal o‘sishi va rivojlanishi hamda yuqori hosil berishi uchun o‘simliklar butun amal davrida uzluksiz suv bilan ta’minlab turilishi zarur. Ma’lumki, o‘simlikka suv asosan barg sathining doimiy transpiratsiyasi natijasida kirib turadi. O‘simlikning suvga bo‘lgan talabi transpiratsiya koeffitsiyentiga qarab aniqlanadi, ya’ni o‘simlik talab etgan suv og‘irligi uning butun organlari og‘irligi (barg, novda, ildiz va boshqalar)ga nisbatan quruq modda hisobida olinadi.

O‘simliklarning suvga bo‘lgan talabi, ko‘pincha meteoro-logik sharoitlar - harorat, havo namligi, quyosh radiatsiyasining intensivligi va shamol tezligi bilan aniqlanadi. Ko‘p yillik tajribalar natijalariga qaraganda o‘simlik bir xil sharoitda bir joyning o‘zida 1*g* quruq modda hosil qilish uchun suvni har xil miqdorda sarflashini ko‘rsatadi. Bunda o‘simlikniig suvga bo‘lgan munosabati uning issiqlikka bo‘lgan talabi bilan aniqlanadi. Har bir mintaqada o‘simlikning issiqlikka bo‘lgan talabi ham o‘sha yerning meteorologik sharoitiga qarab keskin ravishda o‘zgaradi.

Yorug‘likning o‘simlik transpiratsiyasiga ta’siri ham ma’lum. Atrofdagi havo haroratining ko‘tarilishi va o‘simlikka tushadigan yorug‘likning ortishi transpiratsiyani oshiradi, natijada quruq modda hosil bo‘lishi uchun talab qilingan suv miqdori (transpiratsiya koeffitsiyenti) ortiqcha intensiv yorug‘likda kamayadi. Doimo quyosh tushib turadigan joydagi o‘simlik soyada o‘sgan o‘simlikka nisbatan ko‘proq suv sarflaydi.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki O‘rta Osiyoda havo namligi kam bo‘ladi, yuqori harorat, issiq va quruq shamol, ayniqsa quruq (garmsel) shamol o‘simlikda transgpiratsiyani kuchaytiradi, tuproqdan suv tez va ko‘p bug‘lanadi, natijada o‘simlikning suv rejimi buziladi, hosildorlik kamayadi. Ayniqsa Xovos, Qo‘qon guruhi tumanlarida, Surxondaryo, Qoraqum va Buxoro, shuningdek, Qoraqalpog‘istonning ko‘pchilik tumanlarida kuchli shamol esadi, u ekinlarning normal o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerlarda shamol ta’sirida tuproq qatlamidagi nam ko‘tarilib quriydi, unib chiqayotgan uruqqa va maysalarga tuproq nam yetkazib bera olmaydi, ekinlarning ko‘chati siyraklashib qoladi.

Akademik D.N.Pryanishnikov ma’lumotlariga ko‘ra, o‘g‘it solingan va solinmagan yerlarda transpiratsiya koeffitsiyenti tuproq namligi bilan ortib boradi. Tuproqdagi nam miqdoriga uning ustki qatlami tuzilishi ham anchagina ta’sir etadi. Ustki qatlam qanchalik tekis bo‘lsa, suv shunchalik kam bug‘lanadi. Yerni haydash vaqtida do‘ngliklar hosil bo‘lsa va palaxsa ko‘chsa, bunday yerlarda shamol ta’sirida ko‘plab nam bug‘lanadi.

In field conditions, in different soil-climatic zones, it is necessary for plants to be continuously supplied with water throughout the entire period of operation so that crops can grow and develop normally and produce high yields. It is known that water enters the plant mainly as a result of constant transpiration of the leaf surface.

The plant's demand for water is determined by the transpiration coefficient, i.e. the weight of water required by the plant is taken in the dry matter calculation relative to the weight of its entire organs (leaf, branch, root, etc. The demand of plants for water is often determined by meteoro-logical conditions - temperature, air humidity, intensity of solar radiation and wind speed.

